

Oriental Journal of Education



A SYSTEM OF TASKS FOR IMPROVING WRITTEN TRANSLATION COMPETENCE THROUGH THE USE OF CORPUS TOOLS

Anorkhon Akhmedova

Associate Professor at UzSWLU

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: written translation, corpus tools, system of tasks, translation competence, foreign language teaching, cognitive activity, communicative skills, reflective approach.

Received: 02.11.25

Accepted: 03.11.25

Published: 04.11.25

Abstract: The article analyzes a system of tasks based on the use of corpus tools aimed at developing students' written translation competence. In foreign language teaching methodology, exercises and tasks play a central role in transforming students' theoretical knowledge into practical skills and in activating their cognitive, communicative, and reflective activity. The article presents a system of tasks divided into lexical, grammatical, and stylistic stages, highlights the advantages of using corpora, and discusses their effectiveness in developing students' independent and analytical thinking during the translation process.

YOZMA TARJIMA KOMPETENSIYASINI KORPUS VOSITASI YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TOPSHIRIQLAR TIZIMI

Anorxon Axmedova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zDJTU dotsenti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: yozma tarjima, korpus vositasi, topshiriqlar tizimi, tarjima kompetensiyasi, chet tilini o'qitish, kognitiv faoliyat, kommunikativ ko'nikma, reflektiv yondashuv.

Annotatsiya: Maqolada talabalarning yozma tarjima kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan korpus vositasi asosidagi topshiriqlar tizimi tahlil qilinadi. Chet tilini o'qitish metodikasida mashq va topshiriqlar talabani nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmaga aylantirish, kognitiv, kommunikativ va reflektiv faoliyatini faollashtirishda markaziy rol o'ynaydi. Maqolada leksik, grammatik va stilistik bosqichlarga bo'lingan topshiriqlar tizimi, korpusdan foydalanishning afzalliklari

hamda talabalarning tarjima jarayonida mustaqil va tahliliy fikrlashini rivojlantirishdagi samaradorligi yoritilgan.

СИСТЕМА ЗАДАНИЙ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ПИСЬМЕННОЙ ПЕРЕВОДЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОРПУСНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Анорхон Ахмедова

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Доцент УзГСУЯ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: письменный перевод, корпусные инструменты, система заданий, переводческая компетенция, преподавание иностранного языка, когнитивная деятельность, коммуникативные навыки, рефлексивный подход.

Аннотация: В статье анализируется система заданий, основанная на использовании корпусных инструментов, направленных на развитие письменной переводческой компетенции студентов. В методике преподавания иностранных языков упражнения и задания играют центральную роль в преобразовании теоретических знаний студентов в практические навыки, а также в активизации их когнитивной, коммуникативной и рефлексивной деятельности. В статье раскрыта система заданий, разделённая на лексический, грамматический и стилистический этапы, рассмотрены преимущества использования корпусов и их эффективность в развитии самостоятельного и аналитического мышления студентов в процессе перевода.

Kirish. Bugungi kunda yozma tarjimani o'qitishda zamonaviy texnologiyalar, xususan, til korpuslari katta o'rin egallamoqda. Korpus vositasi talabalarga haqiqiy til materiali asosida so'z birikmalari, grammatik tuzilmalar va uslubiy xususiyatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Shu sababli mashq va topshiriqlarni korpusga asoslash, talabani tarjima jarayonidagi mustaqil izlanish, tahlil va tanlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Yozma tarjima kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar odatda bosqichma-bosqich tashkil etiladi:

Leksik bosqichdagi topshiriqlar – bu turdagi mashqlar so'z birikmalari, frazeologik birliklar va sinonimik qatorlarni korpus yordamida tahlil qilishga qaratiladi. Masalan, talabalarga “strong tea” va “powerful tea” iboralari o'rtasidagi farqni ingliz tilidagi korpusdan izlab topish va tarjimada qaysi biri tabiiyroq ekanini aniqlash topshiriladi.

Grammatik bosqichdagi topshiriqlar – bu mashqlar tarjima jarayonida grammatik moslikni tekshirishga xizmat qiladi. Talabalar, masalan, “have been done” va “was done” shakllarining korpusdagi qo‘llanish chastotasini solishtirib, kontekstga qarab tarjimada to‘g‘ri variantni tanlashni o‘rganadilar.

Stilistik bosqichdagi topshiriqlar – badiiy va rasmiy matnlarda ishlatiladigan uslubiy vositalarni tahlil qilishga qaratilgan. Talabalarga korpusdan olingan parallel matnlar asosida muallif uslubini, metaforalar, epitetlar yoki konnotativ ma’nolarning tarjimadagi ifodasini solishtirish topshiriladi.

Integrativ topshiriqlar – bu bosqichda talaba korpus ma’lumotlaridan mustaqil foydalanib, butun matnni tahlil qiladi va tarjima variantini asoslaydi. Masalan, talabalarga Reverso Context yoki Uzbekcorpus.uz orqali asl va tarjima matnlarini taqqoslab, qaysi so‘z va tuzilmalar kontekstdan kelib chiqqan holda o‘zgarganini aniqlash topshiriladi. Bunday topshiriqlar tizimi talabani passiv qabul qiluvchi emas, balki faol izlanadigan tarjimon sifatida shakllantiradi. U nazariy bilimni real til ma’lumotlari bilan bog‘laydi, reflektiv fikrlashni kuchaytiradi va yozma tarjima kompetensiyasining barcha komponentlarini — leksik, grammatik, stilistik va kommunikativ jihatlarini rivojlantiradi. Shu bois, korpus vositasiga tayangan mashq va topshiriqlar tizimi zamonaviy tarjima ta’limida nafaqat texnik vosita, balki didaktik asos sifatida qaralishi lozim. Bu yondashuv talabalarining tarjima jarayonidagi aniqlik, moslik va ijodkorlikni uyg‘un holda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, Korpusli rekonstruksiya mashqlari talabaning yozma tarjima jarayonida yo‘qolgan elementlarni tiklash, noto‘g‘ri variantlarni to‘g‘rilash va matnni yaxlitlashtirish qobiliyatini takomillashtiradi.

1-jadval.

Talabalarining yozma tarjima kompetensiyasini korpus vositasi yordamida takomillashtirish bo‘yicha mashqlar tizimi

Mashq turi	Izoh	Maqsad	Asosiy vazifalar
1. Kirish mashqlari	Talabani korpus bilan ishlash jarayoniga jalb qiladi, qidiruv, KWIC, parallel matn bilan tanishtiradi.	Talabaga korpus interfeysi va asosiy imkoniyatlarini o‘rgatish.	- So‘z va iboralarni korpus orqali qidirish. - Parallel matnlarni tahlil qilish. - Sinonim va ekvivalentlarni aniqlash.
2. Lingvistik-moslashtirish mashqlari	Leksik, grammatik va stilistik birliklarni tabiiy qo‘llashni mashq qildirishga qaratiladi.	Talabani so‘zma-so‘z tarjimadan voz kechib, tabiiy va ravon variant topishga o‘rgatish.	-Kollokatsiyalarni korpusdan izlash va moslashtirish. -Grammatik transformatsiyalarni mashq qilish.

			- Registrga mos tarjimalar yaratish.
3. Korpusli qiyosiy tahlil mashqlari	Talabani tarjimasini professional variantlar bilan qiyoslash orqali xatolarni aniqlashni ta'minlaydi.	Talabani mustaqil baholash va dalillash ko'nikmasiga o'rgatish.	-Tarjima variantlarini qiyoslash. - Xatolarni korpus asosida tuzatish. -Tanlovni yozma kommentariy bilan asoslash.
4. Korpusli rekonstruksiya mashqlari	Yo'qolgan yoki noto'g'ri berilgan elementlarni tiklashga qaratilgan mashqlar.	Talabani matn to'liq, ravon va mazmunan aniqligini ta'minlash malakasini rivojlantirish.	- Matndagi bo'sh joylarni to'ldirish. - Sun'iy variantlarni tabiiy korpusli variantlar bilan almashtirish. - Matn yaxlitligini qayta tiklash.

Ushbu tizim talabalarning yozma tarjima kompetensiyasini bosqichma-bosqich takomillashtiradi:

- 1)avval korpus bilan ishlashni o'rgatadi (kirish mashqlari),
- 2)so'ng tabiiy moslashtirishni shakllantiradi (lingvistik-moslashtirish mashqlari),
- 3)keyin o'z ishini professional variantlar bilan qiyoslashga undaydi (qiyosiy tahlil mashqlari),
- 4)oxirida esa matnni tiklash va to'g'rilash malakasini hosil qiladi (rekonstruksiya mashqlari).

Yuqorida biz taklif etgan mashqlar tizimi olimlar Yu.V.Ivanova hamda U.R.Yo'ldoshevlarning tarjimini o'qitish bo'yicha taklif etgan tizimlari hamda olim P.Newmarkning ta'lim mazmuniga moslik, izchillik, komponentga yo'naltirilganlik, daraja va murakkablik tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqildi.

Keltirilgan mashqlar tizimi talabalarning yozma tarjima kompetensiyasini korpus vositasi yordamida bosqichma-bosqich takomillashtirishga xizmat qilsa, endi mazkur mashqlarni to'ldiruvchi hamda talabani mustaqil izlanishi, ijodiy yondashuvi va qaror qabul qilish malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimiga murojaat qilamiz.

Topshiriqlar tizimi ham to'rt bosqichli bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liq holda talabani yozma tarjima kompetensiyasini korpus vositalari yordamida rivojlantirishga xizmat qiladi. Tayyorlovchi topshiriqlar dastlabki bosqichda talabani korpus bilan ishlash malakasini mustahkamlaydi, qiyosiy topshiriqlar esa uning tarjima variantlarini professional korpus namunalari taqqoslab tahlil qilishiga yordam beradi. Keyingi bosqichda ijodiy topshiriqlar orqali talaba turli uslublarda erkin va mustaqil tarjima yaratishga o'rgatiladi. Yakuniy bosqichda madaniyatlararo topshiriqlar esa tarjimada milliy-madaniy realiyalarni to'g'ri aks ettirish, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish va global kommunikativ muhitga moslashish imkonini beradi.

Topshiriqlar tizimi namunalari

Topshiriq nomi	Izohi
Tayyorlovchi topshiriqlar	
Korpusdan foydalanish bo'yicha mini-loyiha topshirig'i	talaba berilgan so'z yoki ibora uchun korpusdan 10 ta kontekst topib, ularni tahlil qiladi va kichik taqdimot tayyorlaydi.
Glossariy yaratish topshirig'i	talabadan 20–30 ta so'zning korpusdagi parallel tarjimalarini yig'ib, ikki tilli glossariy tuzish talab qilinadi.
Tarjima usullarini kuzatish topshirig'i	talaba korpusdan o'z yo'nalishidagi matnlarni olib, ularda qanday grammatik transformatsiyalar ishlatilganini tahlil qiladi.
Qiyosiy topshiriqlar	
O'z tarjimasini ekspert tarjimasi bilan solishtirish topshirig'i	talaba bitta matnni mustaqil tarjima qiladi, so'ng korpusdagi professional variant bilan qiyoslab, farqlarni yozma tahlil qiladi.
Tarjima xatolarini tahlil qilish topshirig'i	talabaga noto'g'ri yoki sun'iy tarjima varianti beriladi, u esa korpus asosida to'g'ri variantni topib, izoh yozadi.
Variantlarni baholash topshirig'i	parallel korpusdagi bir iboraning 3–4 xil tarjima variantini qiyoslaydi va eng maqbulini tanlab, qarorini dalillaydi.
Ijodiy topshiriqlar	
Stilistik transformatsiya topshirig'i	bitta ingliz tilidagi matnni ikki xil uslubda tarjima qilish (masalan, ilmiy va badiiy).
Matnni qayta yozish topshirig'i	parallel korpusdan olingan matnni qisqartirish, soddalashtirish yoki boyitish orqali tarjima qilish.
Korpusga asoslangan ijodiy tarjima loyihasi	talaba o'z yo'nalishidan matn tanlaydi, korpusdan foydalanib tarjima qiladi va jarayonni yozma refleksiya sifatida taqdim etadi.
Madaniyatlararo topshiriqlar	
Madaniy realiyalarni qiyoslash topshirig'i	talaba inglizcha matnda uchraydigan realiyani (masalan, "Thanksgiving") korpusda qanday tarjima qilinganini topadi va o'z variantini taklif qiladi.
Madaniyatlararo muammo hal qilish topshirig'i	parallel korpusdagi ikki xil tarjima variantini solishtirib, qaysi biri madaniy kontekstdan kelib chiqib to'g'riroq ekanini asoslash.
Madaniyatlararo taqdimot topshirig'i	talaba korpus asosida madaniyatlararo tafovutlarni (masalan, idiomalar) o'rganib, yozma esse yoki taqdimot shaklida natijani taqdim etadi.

Talabalarining yozma tarjima kompetensiyasini korpus vositasi yordamida takomillashtirish jarayoni samarali bo'lishi uchun mashqlar tizimi va topshiriqlar tizimini o'zaro uzviylikda qo'llash zarur. Mashqlar tizimi talabaning lingvistik, grammatik, stilistik va analitik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirsa, topshiriqlar tizimi uning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va madaniyatlararo kompetensiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, taklif etilgan to‘rt turdagi mashqlar talabaning yozma tarjima jarayonida korpusdan foydalanish qobiliyatini bosqichma-bosqich mustahkamlaydi. Shu bilan birga, to‘rt turdagi talabaning mustaqil izlanishi, qaror qabul qilish, ijodiy yondashuvi va madaniy sezgirligini rivojlantiradi. Demak, mashq va topshiriqlarning integratsiyalashgan tizimi talabaning nafaqat yozma tarjima kompetensiyasini, balki uning mustaqil tarjimon sifatida shakllanishini, kasbiy malakasini va global kommunikativ muhitga tayyorligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Qambarov N. Inglizcha-o‘zbekcha universal lug‘at – ma’lumotnoma. – T., 2014. – 188 b.
2. Po‘latov Yu. Badiiy asarda nomlar tarjimasi. – T.: “Fan”, 1967. – 68 b.
3. Файзуллаева Р. К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе: Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1972. – 148 с.
- 4.Tuxtasinov I. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish. Ped. Fan.doktori diss. avtoref. – T.: 2018. – 69 b.
5. Erkaev E. Bo‘lajak chet tili muallimi ta’limida qo‘llanadigan tarjima mashqlarining lingvodidaktik tasnifi. Ped. fan. bo‘yicha fal. doktori disser.. – T.: 2008. – 156 b.
- 6.Abdug‘aniyeva J “Til OTMlar talabalarini ketma-ket tarjimaga o‘rgatishning lingvodidaktik xususiyatlari”. Ped. fan. bo‘yicha fal. doktori disser. avtoreferati – T.: 2020. – 26 b.
- 7.Yo‘ldoshev U.R. Talabalarga badiiy tarjimani o‘qitishning lingvistik va metodik asoslari: Ped. Fan. doktori (DSc) disser. – Samarqand davlat chet tillari instituti. – T.: 2024. – 264 b.
8. Kubedinova E. Og‘zaki tarjimaga o‘qitish tizimida multimediya majmuasi (o‘zbek-rus va rus-o‘zbek tarjimalari misolida) Ped. fan. Bo‘yicha fal. doktori disser. avtoreferati – T.: 2022. – 24 b.